

Yashil

IQTISODIYOT

va

TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA XOM ASHYO RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLARI VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

ORCID: 0009-0004-9254-188X

**Ochilov Akram Odilovich**

Qarshi davlat universiteti, i.f.d., professor

ORCID: 0009-0007-9147-8817

**Xazratov Sarvar Ibragimovich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, ulardan unumli foydalanish yo'llari, xom ashyolarni import qilish yoki qazib olish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ko'rsatib o'tilgan. Qashqadaryo viloyatida moddiy resurslardan foydalanishning samarali usullari va mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilingan hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: resurslar, xom ashyo, iqtisodiyot, xarajatlar, hudud, moddiy resurslar, samaradorlik, narxlar, mahsulot, mintaqa, talab, taklif.

Abstract: This article analyzes the current state of effective use of raw materials in industrial enterprises, ways of its effective use, problems arising during the import or extraction of raw materials, effective methods of using material resources, and regional peculiarities in the Kashkadarya region. Suggestions for improving production efficiency are provided.

Key words: resources, raw materials, economy, costs, territory, material resources, productivity, prices, products, region, demand, supply.

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние эффективного использования сырья на промышленных предприятиях, пути его эффективного использования, проблемы, возникающие при ввозе или добыче сырья, эффективные методы использования материальных ресурсов и региональные особенности Кашкадарьинской области, а также даны предложения по повышению эффективности производства.

Ключевые слова: ресурсы, сырьё, экономика, затраты, территория, материальные ресурсы, производительность, цены, продукция, регион, спрос, предложение.



KIRISH

Dunyo iqtisodiyotida yildan-yilga raqobat kuchayib borishi, tovarlarning xususiy yoki xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan bozorlarda past narxlarda taklif qilinishi, yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarining jismonan va ma'nan eskirganligi natijasida ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozorlarda raqobatbardosh bo'lmayapti. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan yuqori likvid toifasiga kirmaydigan mahsulotlarning tannarxi sotish narxiga nisbatan yuqori bo'lib, ushbu mahsulotlardan olinayotgan daromad korxonalarning rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ular ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishni to'xtatishga majbur bo'lmoqda. Bunda xarid qilinayotgan yoki qazib olinayotgan xom ashyoning qiymati, ularning sifati va yetkazib berish bo'yicha qilinadigan xarajatlarning oshishi bunday mahsulotlarning umumiy tannarxining oshishiga olib kelmoqda. Shu sababli yirik sanoat korxonalari oldida xarajatlarni qisqartirish yoki optimallashtirish orqali tannarxni pasaytirish hamda ichki va tashqi bozorlarda mavjud ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashishga erishish zarurati paydo bo'lmoqda.

Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarida xom ashyo va yoqilg'i xarajatlari ishlab chiqarishga sarflangan jami xarajatlar hajmida eng katta ulushga ega. Shuning uchun sanoat korxonalari faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari ko'p jihatdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xom ashyo va yoqilg'i xarajatlari darajasiga bog'liq bo'ladi. Sanoat mahsuloti tannarxida xom ashyo, yordamchi materiallar va yoqilg'i xarajatlari jami xarajatlarning o'rtacha 50-60 foizini tashkil etadi. Shuning uchun xom ashyoni tejash ishlatish yoki ularni chuqur qayta ishlash orqali ulardan unumli foydalanish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishda, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishda va ishchilar mehnatining unumdorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Sanoat tarmoqlarida xom ashyo va materiallardan oqilona foydalanish mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy manbaidir. Mashina va uskunalarning unumli ishlashi va tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun vaqt sarflanish darajasi xom ashyo sifati va uning turiga bog'liqdir.

Xom ashyo resurslaridan unumli foydalanish bo'yicha hukumatimiz tomonidan ko'plab qaror va chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli Farmoni [8], 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni [1] hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonlariga [2] asosan sanoatni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, hududlarning tabiiy xom ashyo resurslarini va ularning imkoniyatlarini o'rganish, sanoat korxonalarini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash, sanoatning tog'-kon va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va resurslarni hududlar bo'ylab teng taqsimlash asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Shuningdek, operatsion samaradorlikni oshirishda zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mahalliy xom ashyo bazasidan unumli foydalanish va sanoatda ilg'or texnologiyalarni qo'llash asosida sanoatni rivojlantirish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini ikki barobar oshirish, yuqori daromadli mahsulotlar ishlab chiqarishda zarur bo'lgan mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltin – 1,5 barobar, kumush – 3 barobar, uran – 3 barobar oshirish va kon zahiralari baholashda ilg'or xalqaro standartlarni keng joriy qilish belgilangan. Mahalliyashtirishga 1,5 milliard dollar investitsiya jalb qilish kabi ko'plab chora-tadbirlar ham belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy va amaliy manbalarda keltirilgan nazariy va uslubiy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yildan-yilga resurslarning kamayishi, ulardan samarali foydalanish va yuqori qiymatga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishlari iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan va takliflar kiritilgan. Iqtisodchi olimlar A.E. Ishmuxamedov va M.R. Rahimovlarning fikriga ko'ra, qayta ishlash sanoatida mahsulotni qayta ishlash darajasining takomillashuvi qazib olish sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashga asos bo'ladi. Viloyat sanoat korxonalarida texnik va texnologik holatni yaxshilash, xom ashyo va kapital mablag'ni tejash, energiya va suv sig'imini kamaytirish, ishchi kuchi salohiyatidan samarali foydalanish o'ta muhimdir. Bu esa nisbatan arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, hududlararo aloqalarni mukammallashtirish, raqobatbardosh mahsulot miqdorini oshirish muammolarini hal etish imkonini beradi [3].

Iqtisodchi olimlar G.M. Shadieva, T.S. Sharipov va boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, tabiiy resurslardan foydalanish fan-texnika yutuqlarini hisobga olgan holda reja asosida olib borilishi zarur. Fan va texnika taraqqiyoti, tabiat boyliklaridan xalq manfaatlari yo'lida samarali foydalanish, energiyaning yangi turlarini ochish va yangi materiallar yaratish, iqlim sharoitlariga ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqish imkonini beradi [4].

D. Ro'ziyevaning fikricha, ijtimoiy ishlab chiqarish va uning asosiy bo'g'inlari bo'lgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moddiy resurslardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Moddiy resurslardan foydalanishning samarali turlari sifatida ulardan kompleks (har taraflama) foydalanish hamda chiqindilardan yoki ikkilamchi xom ashyo va materiallardan foydalanish nazarda tutilgan [5].



Iqtisodchi olim V.A. Fedoseevaning yozishicha, moddiy resurslarni samarali boshqarish ishlab chiqarish va operatsion davrni, shuningdek, joriy va saqlash xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi hamda joriy aylanmalarni qayta investitsiya qilish uchun qulay muhit yaratadi [6].

Tadqiqot maqsadi Qashqadaryo viloyatida joylashgan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning moddiy resurslardan samarali foydalanish darajasini o'rganib chiqish hamda tahlil natijalariga asoslanib taklif va xulosalar berishdan iborat. Tadqiqot orqali yirik sanoat korxonalari tomonidan sarflanayotgan moddiy resurslarni samarali boshqarish tizimini mintaqalar bo'yicha joriy qilish yo'llari, kam xom ashyo sarflab yuqori iqtisodiy nafga ega bo'lish, ishlab chiqarishda xom ashyoni chuqur qayta ishlash va chiqindilarni qayta ishlash orqali daromadni oshirish yo'llarini tadqiq qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida empirik kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan hamda nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Hududlarga kirib kelayotgan import tovarlarini mamlakatimizda ishlab chiqarish imkoniyatlari iqtisodiy tahlil usuli asosida o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyati hududiy jihatdan boshqa viloyatlarga nisbatan katta va boy resurslarga ega bo'lsa-da, ulardan foydalanish darajasi bo'yicha orqada qolmoqda. 2024-yil birinchi choragida viloyatda jami 3241 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan bo'lib, bu ko'rsatkich boshqa viloyatlar orasida 10-o'rinda qayd etilgan. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'sish sur'ati bo'yicha esa 2024-yilning 1-choragida 2023-yilning 1-choragiga nisbatan 107%ni tashkil qilgan va bu ko'rsatkich viloyatlar orasida 7-o'rinni egallagan. Viloyat hududi kengligi jihatidan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yer maydoni bo'yicha boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori o'rinlarda turadi (1-jadval).

1-jadval. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan maydonlar ko'rsatgichi (hududlar kesimida) [9] 1-yanvar 2023-yil holatda.

№	Hududlar nomi	Maydon (ming km ²)	Aholi soni (ming kishi)	1 km ² ga to'g'ri keladigan aholi soni (kishi)
1	Toshkent shahri	0,44	2 956,4	6 719,1
2	Andijon viloyati	4,30	3 322,7	772,7
3	Farg'ona viloyati	6,76	3 976,3	588,2
4	Namangan viloyati	7,44	2 997,5	402,9
5	Xorazm viloyati	6,05	1 958,1	323,7
6	Samarkand viloyati	16,77	4 118,2	245,6
7	Sirdaryo viloyati	4,28	896,6	209,5
8	Toshkent viloyati	15,14	2 993,4	197,7
9	Surxondaryo viloyati	20,10	2 806,5	139,6
10	Qashqadaryo viloyati	28,57	3 482,3	121,9
11	Jizzax viloyati	21,21	1 475,5	69,6
12	Buxoro viloyati	40,22	2 009,7	50,0
13	Qaraqalpog'iston Res.	166,59	1 976,2	11,9
14	Navoiy viloyati	111,10	1 055,5	9,5
		448,97	36 024,90	



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyatda 1 km kvadrat maydonga o'rtacha 122 kishi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha eng zich joylashgan hudud Toshkent shahri hisoblanib, har bir km kvadratga 6719 kishi to'g'ri keladi. Qashqadaryo viloyati katta hududga ega bo'lishiga qaramay, aholi jon boshiga nisbatan sanoat ishlab chiqarish bo'yicha oxirgi o'rinlarda bormoqda (2-jadval).

2-jadval. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarini ishlab chaqarish hajmi 2024-yil yanvar-mart oylarida (hududlar kesimida) [9]

№	Hududlarni nomi	ming.so'mda
1	Navoiy viloyati	26 559
2	Toshkent shaxri	10 254
3	Toshkent viloyati	8 329
4	Sirdaryo viloyati	5 224
5	Andijon viloyati	5 114
6	Buxoro viloyati	3 744
7	Jizzax viloyati	3 236
8	Xorazm viloyati	2 633
9	Qaraqalpog'iston Respublikasi	2 572
10	Farg'ona viloyati	2 064
11	Qashqadaryo viloyati	2 055
12	Samarkand viloyati	1 914
13	Namangan viloyati	1 699
14	Surxondaryo viloyati	742

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishda keng imkoniyatlar mavjud. Ushbu imkoniyatlarni o'rgangan holda chet el investitsiyalarini jalb qilish va bu orqali sanoatning asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil qilish choralarini ko'rish lozim. Viloyatda yengil sanoat turi bo'yicha ham keng imkoniyatlar bo'lsa-da, hali ham trikotaj mahsulotlari uchun asosiy xom ashyoni boshqa viloyatlardan yoki import sifatida olib kelinmoqda. Statistik ma'lumotlarga asosan, 2022-yilda Qashqadaryo viloyati paxta xom ashyosini eng ko'p maydonga ekilgan hudud hisoblansa-da (131,9 ming gektar), ishlab chiqarishning yengil sanoat tarmog'i mahsulotlari bo'lgan ip kalava ishlab chiqarish 28,6 ming tonnani tashkil etib, boshqa viloyatlarga nisbatan 10-o'ringa, ip gazlama va trikotaj polotnosi ishlab chiqarish bo'yicha oxirgi o'rinlarda turibdi. Viloyatda chulki-paypoq va gilam mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan. Bundan ko'rinib turibdiki, sanoatning yengil sanoat tarmog'i bo'yicha viloyat katta salohiyatga ega ekanligini hisobga olib, bu tarmoqqa investitsiya jalb qilishni kengaytirish ishlarini olib borish talab etiladi. Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududga investitsiyalarni keng ko'lamda jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022–2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 20-apreldagi 201-son qarorida [9] bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Unga ko'ra, 2022-2026-yillarda hududda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,5 baravar oshirib, 2024-yilda 62,8 trln so'mga, sanoat mahsulotlari hajmini esa 28 trln so'mga yetkazish ko'zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahonda tabiiy xom ashyo resurslarining yildan-yilga kamayib borishi, aksincha ehtiyojlarning keskin oshib ketishi iqtisodiy barqarorlikka erishishga va sanoat ishlab chiqarishda sifat ko'rsatkichlarining oshishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda mavjud sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlarini yanada kengroq va chuqurroq tahliliy holatda o'rganish, muammolarni bartaraf etish bo'yicha barcha infratuzilmalarni yangilash, zamonaviylashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish asnosida mahsulotlarni zamon talablari bo'yicha diversifikatsiya qilish ishlarini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda cheklanmagan ehtiyojlarni cheklangan resurslar bilan ta'minlashning eng asosiy yo'li bu xom ashyo resurslaridan unumli foydalanish, ishlab chiqarishdan chiqqan chiqindilarni qayta ishlovchi texnologiyalar olib kelib, ulardan foydalan-



ishni keng yo'lga qo'yish, tabiiy resurslar tarkibini zamonaviy infratuzilmadan foydalangan holda chuqur qayta ishlash orqali mahsulot miqdori va sifatini yanada oshirishdan iborat. Bunda Qashqadaryo viloyati hududlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini o'rganib chiqib, ushbu hududlarda qaysi turdagi mahsulotlarni ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqib, ularni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.E. Ishmuhamedov, M.R. Rahimova, "Mintaqaviy iqtisodiyot". Darslik. "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2010-y. 21-bet.
2. G.M. Shadieva, T.S. Sharipov va b., "Mintaqaviy iqtisodiyot". Darslik. Toshkent, "FAN BULOG'I" nashriyoti, 2023-y. 97-bet.
3. D. Ro'zieva, "Korxona iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma, "Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi" nashriyoti, 2022-y. 166-bet.
4. В.А. Федосеева. Экономика организации (предприятия). Учебное пособие. Издательский центр Пермского государственного национального исследовательского университета, 2018-y. 67-s.
5. Internet manbalari:
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. Manba: <https://stat.uz/uz/>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni va uning 1-ilovasi asosida tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". Manba: <https://lex.uz/docs/5841063>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni va uning 1-ilovasi asosida tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Manba: <https://lex.uz/docs/6600413>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/6633676>.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-sonli Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/5971265>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

